

*San’at va sport fakulteti “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi”
ta’lim yo’nalishi o’qituvchisi*

Muzafarova Sanobar Murodullayevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san’at fanini o’rganishdan maqsad - kelajakda tasviriy san’at o’qituvchisini ham nazariy, ham amaliy ko’nikmalarini chuqur egallashlari, ularning ijodiy qobiliyatini shakllantirish, tasviriy san’at fani bo’yicha olgan bilim va malakalariga asoslangan holda, o’zining kuzatishlari, badiiy tasvir yaratish oldidan qilinadigan izlanishlarida, ayniqsa eskizlar, ular asosida katta ko’lamdagi san’at asarlarini yaratishda rangtasvirning o’rni beqiyosligi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: Manzara, natyurmort, portret, ilg’or kishilar, mehnatkash xalq, shoir, rassom, rang tasvir ustasi, ona-tabiat bag’rida, o’zbekona an’analar, to’ylar, beg’ubor o’zbek bolalari, lobar qizlar, mushtipar ona, betakror iste’dod sohibi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan oq, Respublika-miz rassomlari ko’pgina ko’rgazmalarda faol ishtirok etib, san’atimiz ta’sirchan-ligining ortib borayotganini namoyish etdilar. Bizning rassomlarimiz ko’pgina janrlarda ijod qilib kelmoqdalar, manzara, natyurmort, portret va boshqalar. Nat-yurmortda bozorlarimizning to’lib toshgan noz-ne’matlarini, manzara janrida esa o’lkamizning go’zalligini va bepoyonligini, oddiy tabiat ko’rinishidagi go’zlikni to’laqonli ifodalashga harakat qilmoqdalar. Shu bilan birga qadimdan qolgan butun dunyoga taniqli ajib me’morchilikning nodir yodgorliklarini o’z asarlarida ko’rsatdilar. Portret janrida esa Vatanimizning ilg’or kishilarini, mehnatkash xalqni, shoir, rassom, musiqachilarni tasvirladilar. Bizning O’zbekistonimiz ajoyib istedodli rassom va haykaltaroshlarni yetkazib berdi. Bular ichida Iskandar Ikromov, Chingiz Ahmarov, Malik Nabiye, Mannon Saidov, Damir Ro’ziboev, Ilhom Jabborov, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzaev, Akmal Ikromjonov, Ne’mat Hakimov, Temur Sa’dullaev, G’ofur Abdurahmonovlar alohida mavqega ega. O’zbekiston xalq rassomi Alisher Mirzaev rang tasvir ustasi, xalqimiz an’analariga boy va sermazmun o’tmish, tasviriy san’at merosiga hurmat bilan qaraydi. Rassom o’z xalqiga xos psixologik kechinmalarni chuqur tahlil qila oladi, rassom ona-tabiat bag’rida o’zbekona an’analarini, to’ylarni, beg’ubor o’zbek bolalarini, lobar qizlarni, mushtipar onalar kabi obrazlarni aks ettira olishga muvaffaq bo’ldi. Jumladan, “Toshkent – tinchlik va do’stlik shahri”, “Bola xonada”, “Intizorlik”, “Yosh oila haqida qo’-shiq” kabi o’nlab asarlari moybo’yoqda yaratilgan. Umuman rassom tabiat va jamiyatda bo’layotgan o’zgarishlarni e’tiborsiz qoldirmaydi. Rassom rangtasvirlariga shunday jon bag’ishlaydiki, undagi go’zallik sirlari odamlarni ezgulikka yetaklaydi, rassom asarlari bugungi kunda xalqimiz hurmatini qozonish bilan birga, ko’pgina xorijiy davlatlarda ham ma’lum va mashhurdir.

Bizning rassomlarimizdan, O’zbekiston badiiy akademiyasining faxriy a’zosi Hamza nomidagi O’zbekiston davlat mukofoti laureati, Abdulhaq Abdullaev haqida gapiradigan

bo'lsak. U 1918 yilning 30 dekabrda Qozog'istonning Turkiston shahrida tug'ilgan. Rangtasvirchi rassom. A.Abdullaev asosan tasviriy san'atning portret janrida ijod qilgan. Lekin uning manzara natyurmort janrida ishlangan o'ziga xos jozibaga ega ishlari ham bor.

Rassom o'z esdaliklarida I.Repinning Moskvadagi Tretyakov galereyasida saqlanayotgan portretlari, o'zini mutlaqo rom etganligini to'liqlanib yozgan edi. Abdulhaq Abdullaev Samarqand rassomchilik texnikumini bitirib, 1938—1941 yillarda Moskva rassomchilik institutida ta'lim oldi. Toshkentga qaytgach, uning ijodi yangi bosqichga ko'tarildi. Kuch va g'ayratga to'lgan rassom 1941—1945 yillar mobaynida urush qatnashchilari va qishloq mehnatkashlarining portretlarini ishlay boshladi

Ayniqsa, bu borada uning "Navbahor", "Bahor keldi", "Botanika bog'ida", "Yomg'irdan so'ng" nomli asarlari diqqatga sazovordir. Ijodkorning o'tgan asrning 50 yillari ikkinchi yarmi va 60 yillaridagi Hindiston, Afrika, Indoneziya bo'ylab qilgan sayohatlari unga bir dunyo ijodiy ko'tarinkilik baxsh etdi. Natijada u mazkur tassurotlar va u Yerdalarda ishlagan etyudlari asosida "Indira Gandi" (1957 y.), "Hind ayoli" (1957 y.), "Jaypurda" (1957 y.), "Milliy libos kiygan sinx" (1957 y.), "Muallifning Indoneziya milliy bosh kiyimida ishlangan avtoportreti" (1964 i.), "Frantsuz tili o'qituvchisi" (1966 y.), "Senegallik yigit" (1966 y.) kabi portret asarlarini yaratdi.

O'ziga xos va betakror iste'dod sohibi A.Abdullaevning asarlari yuksak qadrlanib, jahonning nufuzli muzeylari va tashkilotlari tomonidan sotib olingan. Xususan, uning asarlari Moskvadagi Sharq xalqlari san'ati muzeyida, O'zbekiston Davlat san'at muzeyida, O'zbekiston yozuvchilar Uyushmasida, O'zbekiston badiiy fondi, Qo'qon o'lka tarixiy muzeyida, Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyida, Til va adabiyot institutida avaylab saqlanmoqda. Bu noyob asarlar jozibasidan minglab kishilar estetik zavq, olmoqdalar.

ADABIYOTLAR:

1. R. T. Shirinov. "San'at ta'limida zamonaviy metodlar". Toshkent: O'zbekiston davlat san'at instituti, 2021.
2. A. V. Ivanov. "Multimedia vositalari va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishi". Samara: Oliy ta'lim. 2019.
3. С.Т.Саъдиев З.С.Очилов XLIII Международная научно-практическая конференция "Международное научное обозрение проблем и перспектив современной науки и образования". "По теме Факторы, влияющие на качество музыкального образования". 2018 г 25-26 Март (Америка Бостон). <https://creativecommons.org/licenses/by-sa/4.0/deed.en>
4. С.Т.Саъдиев ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal "Тасвирлашнинг асосий қонун – қоидалари" Vol. 11, Issue 5, May 2021 saarjjournal@gmail.com
5. С.Т.Саъдиев "Ўрта асрлар шарқ миниатюра мактабларининг методлари" «Science and innovation» халқаро илмий журнали (ISSN: 2181-3337) 2022-йил 2-сон. <http://scientists.uz/view.php.id=178> <http://scientists.uz/uploads/202202/061.pdf>

20-Oktyabr, 2025-yil

6. С.Т.Саъдиев «Science and innovation» халқаро илмий журналі N EDUCATIONAL ACTIVITIES “Халқ амалий санъатида ёғоч ўймакорлиги-нинг ўзига хос аҳамияти” (ISSN: 2181-3523) 2022-yil 5-сони. https://t.me/science_innovations

7. Sa'diyev S. T, Muzropova G. M. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 2 FEBRUARY 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ “EXPRESSION OF REALITY IN MODERN UZBEK FINE ART” <https://doi.org/10.5281/zenodo.7643877>

8. Sa'diyev S. T, Sultonov Bahodir. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 3 MARCH 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ “THE IMPORTANCE OF APPLIED ART WORKS IN EDUCATION OF SOCIAL COMPETENCE IN PRIMARY CLASS STUDENTS OUTSIDE THE CLASSROOM EDUCATION” <https://doi.org/10.5281/zenodo.7698852>

Global
Science
Publication